XALQ DEPUTATLARI ULUG‘NOR TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-2-019-1-26-K/24 Ulug‘nor tumani

Ulug‘nor tumanining 2025-yil uchun mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27-, 99-moddalari, “2025 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-son Qonuniga hamda xalq deputatlari Andijon viloyat Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-3-046-1-0-K/24-son qaroriga shuningdek, Andijon viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 26-dekabrdagi 01/01-04-15-/1913-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Ulug‘nor Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonuni hamda xalq deputatlari Andijon viloyat Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-3-046-1-0-K/24-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Ulug‘nor tumani mahalliy budjetining 2025-yil uchun daromadlari **52 mlrd. 199 mln. so‘m** va xarajatlari esa **81 mlrd. 534.1 mln. so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar **29 mlrd. 335.1 mln. so‘m** miqdorida tasdiqlanganligi, shuningdek, Ulug‘nor tumani mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **381.0 mln. so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **1-ilovaga** muvofiq hamda tuman mahalliy budjetidan 2025-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **2-ilovaga** muvofiq, shuningdek Ulug‘nor tumani mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun **1 mlrd. 2 mln. 763 ming so‘m** miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek

ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Sh.Qo‘ziboyev, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Raxmonov), tuman soliq inspeksiyasi (B.Maxsudov) bilan birgalikda 2025-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror 2025-yil 1-yanvardan kuchga kiradi.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Ulug‘nor tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi (D.Alimov) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Sh.Qo‘ziboyev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



AXMADJONOV
MUXAMMADISLOMIDDIN
MUXAMMADSOBIROVICH

Xalq deputatlari Ulug‘nor tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-2-019-1-26-K/24 -son qaroriga
1-ilova

2025-yil uchun Ulug‘nor tumani mahalliy budjeti daromadlarining prognozi

KO‘RSATKICHLAR

№	Ko‘rsatkichlar	Summa
1	Aylanmadan olinadigan soliq	4 431 000
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	28 643 000
3	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	523 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	3 842 000
5	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	3 942 000
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	6 647 000
7	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	269 000
8	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3 842 000
9	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	60 000
	JAMI	**52 199 000**
	Viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar	29 335 072
	Hamma daromadlar	**81 534 072**

Xalq deputatlari Ulug‘nor tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-2-019-1-26-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025-yil uchun Ulug‘nor tumani mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan

MIQDORLARI

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
Xarajatlar miqdori, jami		**81 534 072**
1	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	*20 724 396*
	shundan:	
	"Mening maktabim"	*1 504 675*
	shundan:	
2	Madaniyat bo‘limi	*3 794 200*
3	Yoshlar ishlari tuman bo‘limi	*2 838 183*
4	Sport bo‘limi	*3 353 273*
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*1 975 245*
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*1 969 626*
7	Irrigatsiya bo‘limi	*2 561 582*
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limini saqlash xarajatlari	*2 063 312*
9	Hokimiyat	*27 937 320*
	shundan:	
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*20 017 800*
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*628 000*
	Zahira jamg‘armasi	*1 002 763*
10	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*872 647*
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*166 861*
	Axborot-kutubxona markazlari	*705 786*
11	Hokimiyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	13 444 288

Xalq deputatlari Ulug‘nor tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-2-019-1-26-K/24 -son qaroriga
3-ilova

2025-yil uchun umumdavlat soliqlari va majburiy to‘lovlardan Ulug‘nor tuman mahalliy byudjetlariga ajratmalar

ME’YORLARI

№	Hududlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i*	Foyda solig‘i	Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari) uchun aksiz solig‘i	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq*	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i*	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq
1	Ulug‘nor tuman	100 %	0 %	0 %	0 %	100 %	100 %	100 %	100 %

№	Hududlar nomi	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar	Aylanmadan soliq	Davlat mulkini sotish-dan olingan daromadlar	Yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari	Davlat boji **	Jarima**	Yig‘imlar**	Boshqa (3450603, 3450723, 3450725, 3450950, 3450951, 3511117, 3511700, 3710303 doromad kodlari bo‘yicha) tushumlar*
1	Ulug‘nor tuman	0 %	100 %	50 %	50 %	0 %	0 %	0 %	100 %